

PRAGMATIKANING BADIY ASARLARDAGI AHAMIYATI

Isroilova Mohigul

Samarqand davlat chet tillat instituti o'qituvchisi

Xolbayev Farrux

Samarqand davlat chet tillat instituti talabasi

Annotatsiya: Ushbu tezisda badiiy asarlarni o'rganishda pragmatikaning muhimligi, bu sohani yaqindan o'rganish, uning ahamiyatli tomonlarini namoyon qilinishiga urg'u beriladi.

Kalit so'zlar: Tahlil qilish uslublari, pragmatika, tilshunoslik, sintaktik va semantik xususiyatlari, lingvistik nazariyasi, semiotika.

Keyingi yillarda nafaqat dunyo tilshunosligida, balki o'zbek tilshunosligida ham pragmatika va u bilan bog'liq bo'lgan atamalar yuzasidan turli tadqiqotlar olib borilmoqda. Pragmatika - semiotika va tilshunoslikning nutqda til belgilarining amal qilishini o'rganuvchi sohasi, boshqacha aytganda, muayyan belgilar tizimini o'zlashtirib undan foydalanuvchi sub'yektlarning ayni shu belgilari tizimiga munosatini o'rganuvchi fan tarmog'i. Pragmatika haqidagi asosiy g'oya amerikalik olim Charlz Sanders Pirs tomonidan o'rtaga tashlangan; yana bir amerikalik olim Charlz Uilyam Morris ushbu g'oyani rivojlantirgan va " Pragmatika " terminini semiotika bo'limlaridan birining nomi sifatida amaliyotga kiritgan. Pragmatika insonning ijtimoiy faoliyatini o'zida qamrab oluvchi nutq jarayoni, muayyan aloqa vaziyati orqali namoyon bo'ladi. Lingvistik Pragmatika aniq shakl, tashqi ko'rinishga ega emas; uning doirasiga so'zlovchi sub'yekt, adresat, ularning aloqa-aralashuvdagi o'zaro munosabatlari, aloqa-aralashuv vaziyati bilan bog'liq ko'plab masalalar kiradi. Masalan, nutq sub'yekti bilan bog'liq holda quyidagi masalalar o'rganiladi: bayonning oshkora va yashirin maqsadlari (biron-bir axborot yoki fikrni yetkazish, so'roq, buyruq, iltimos, maslahat va'da berish, uzr so'rash, tabriklash, shikoyat va boshqalar); nutq taktikasi hamda nutq odobi turlari; suhbat, so'zlashish qoidalari; so'zlovchining maqsadi; so'zlovchi tomonidan adresatning umumiy bilim jamg'armasi, dunyoqarashi, qiziqishlari va boshqa xislatlariga baho berilishi; so'zlovchining o'zi bayon qilayotgan xabarga munosabati kabilar. Pragmatikada nutq adresati, o'zaro aloqaga kiruvchilarning munosabatlari, muayyan aloqa vaziyati singari omillar bilan bog'liq qolda ham ko'plab masalalar o'rganiladi.

Pragmalingvistika tilshunoslikning mustaqil yo'nalishi sifatida o'tgan asrning 60-70-yillarida shakllanadi. Pragmatika aslida falsafiy tushuncha bo'lib, u Suqrot dan oldingi davrlarda ham qo'llanishda bo'lgan va keyinchalik uni J.Lock, E.Kant kabi faylasuflar Aristoteldan o'zlashtirganlar. Shu tariqa falsafada pragmatizm oqimi yuzaga kelgan. Bu oqimning asosiy taraqqiyoti davri XIX- XX asrlardir. Ayniqsa, XX asrning 20-30-yillarida pragmatizm g'oyalarining keng targ'ibi aniq sezila boshladi. Amerika va Yevropada bu targ'ibotning keng yoyilishida Ch.Pris, R.Karnap, Ch.Morris, L.Vitgenshteyn kabilarning xizmatlarini alohida qayd etmoq kerak.

Asarni yozmadan og'zakigacha qayta kodlashda ma'lum chegaralarda uning tovushini talqin qilishda ba'zi farqlar bo'lishi mumkinligini inobatga olgan holda, o'zgaruvchanlikka imkon beruvchi fonetik vositalar deyiladi, bu esa semantik talqinni tabiiy ravishda o'zgartiradi. Muallifning fonetik stilistik vositalari. Nutqning ekspressivligini, uning emotsional-estetik ta'sirini oshiruvchi muallifning fonetik vositalari so'z tanlash va ularni tartibga solish, takrorlash orqali nutqning tovush materiyasi bilan bog'lanadi. Ularning umumiylikida bu vositalar evfoniya yoki eufoniya ta'limotida ko'rib chiqiladi.

Pragmatika til belgilarining nutqdagi harakatini o'rganuvchi tilshunoslikning tadqiqot doirasidir. Lingvistik pragmatika aniq shaklga ega emas. Uning tarkibiga so'zlovchi va tinglovchiga, ularning nutq jarayonidagi o'zaro munosabatiga bog'liq masalalar majmui kiradi. Gapiruvchi shaxsning tinglovchi diqqat-e'tiborini tortish, ularga kommunikativ ta'sir qilish, qiziqtirib qo'yish, fikrini jalb qilish yoki aksincha, chalg'itish, hayajonga solish, to'liqlashtirish, ishontirish yoki aldashga urinishida so'zning, so'z birikmasining ekspressivemotsional-baholovchi konnotativ ma'nosini, ya'ni pragmatik ma'nosini tadqiq qilish ehtiyoji vujudga keldi. So'zlovchi biror nutq yaratar ekan, u o'zining bu faoliyati bilan qabul qiluvchiga (tinglovchi) qandaydir axborotni etkazishni, kechmishlarini bayon etishni, atrofimizda kechayotgan yangiliklarni etkazishni nazarda tutadi. Bu orqali so'zlovchi retseptorga ma'lum ta'sir ham o'tkazadi. Retseptorga nutq orqali ko'rsatiladigan ta'sir pragmatik xususiyatlar orqali amalga oshiriladi. Pragmatika insonning ijtimoiy faoliyatini o'zida qamrab oluvchi nutq jarayoni, muayyan aloqa vaziyati orqali namoyon bo'ladi. Lingvistik pragmatika aniq shakl, tashqi ko'rinishga ega emas; doirasiga so'zlovchi sub'yekt, adresat, ularning aloqa-aralashuvidagi o'zaro munosabatlari, aloqa-aralashuv vaziyati bilan bog'liq ko'plab masalalar kiradi. Masalan, nutq sub'yekti bilan bog'liq holda quyidagi masalalar o'rganiladi; bayonning oshkora va yashirin maqsadlari (biron bir axborot yoki fikrni yetkazish, so'roq, buyruq, iltimos, maslahat va'da berish, uzr so'rash, tabriklash, shikoyat va boshqalar; nutq taktikasi hamda nutq odobi turlari; suhbat, so'zlashish qoidalari; so'zlovchining maqsadi; so'zlovchi tomonidan adresatning umumiy bilim jamg'armasi, dunyoqarashi, qiziqishlari va boshqa xislatlarga baho berilishi; so'zlovchining o'zi bayon qilayotgan xabarga munosabati kabilar. Pragmatika nutq adresati, o'zaro aloqaga kiruvchilarning munosabatlari, muayyan aloqa vaziyati singari omillar bilan bog'liq holda ham ko'plab masalalar o'rganiladi. Pragmatika g'oyalari evristik (yo'naltiruvchi) dasturlash, mashina tarjimai, informatsion-qidiruv tizimlari va boshqalarni ishlab chiqishda qo'llanadi.

Pragmalingvistikaning predmetini aniqlashga ilk bor ahd qilganlardan biri G.Klaus edi. U pragmatikani belgilar va ushbu lisoniy belgilarni yaratuvchi, uzatuvchi hamda qabul qiluvchi shaxslar o'rtasidagi munosabatlarni o'rganuvchi fan sifatida ta'riflaydi. Ushbu ta'rifdan ko'rinib turibdiki, pragmatikaning predmetini aniqlashda G.Klaus ham boshqa semiotiklar kabi belgi va uni idrok etuvchi interpretor munosabatidan uzoqlashmaydi, hatto uning “pragmatika dastlabki o'rinda lisoniy belgilarning psixologik va sotsiologik tomonlarini o'rganuvchi nazariyadir” degan xulosasi ham pragmatika tushunchasini tor ma'noda tavsiflashdan boshqa narsa emas. Pragmalingvistikaning predmetini aniqlash va uning ta'rifini berishga harakat qiladi.

“Pragmatika tinglovchini uzilayotgan axborotni xuddi soʻzlovchi istaganidek qabul qilishga undash maqsadi uchun mos keladigan lisoniy birliklarning kommunikatsiyada qoʻllanishi tavsiflaydi. Bi pragmatika lisoniy vositalarning shaxslar aro muloqotidagi rolini aniqlash bilan shugʻullanadi; deyish demakdir”. Ushbu taʼrifning asosida lisoniy harakatdagi koʻzlanayotgan maqsad va unga erishish vositasi oʻrtasidagi munosabat turadi.

Badiiy adabiyotlarda pragmatikaning birinchi vazifasi kitobxonga estetik taʼsir koʻrsatishdir. Agar asliyatdagi pragmatik taʼsir tarjimada mavjud boʻlmasa, u kitobxonda hech qanday reaksiya uygʻota olmasa, demak, asliyatning pragmatik xususiyati qayta yaratilmagan va bunday tilshunoslik hech qanday qiymatga ega emas.

Maʼlumki, ilmiy-texnik matnlarning asosiy vazifasi taʼsir oʻtkazish emas, balki axborotni yetkazishdir. Bu oʻrinda bunday matn tarjimasining ham bosh vazifasi xuddi shunday boʻladi va tilshunoslikda pragmatikaning roli asliyatga axborotni yetkazib berish hisoblanadi. Bir soʻz bilan aytganda, pragmatik xususiyatlarning tilshunoslikda va badiiy adabiyotlarni oʻrganishda roli juda muhim.

Yuqorida berilgan maʼlumotlarni umumiy qilsak, pragmatik tahlil badiiy asarlarni oʻqishda oʻquvchiga estetik taʼsir koʻrsatadi, voqealarni tahlil qilishida muhim ahamiyat kasb etadi. Til birliklarining badiiy voqelanishida pragmatikaning oʻrni juda muhim hisoblanadi. Fanda bu borada amalga oshirilishi lozim boʻlgan ishlar oʻz tadqiqotchilarini kutib turibdi.

ADABIYOTLAR ROʻYXATI:

1. Yoʻldoshev M. , Isaqov Z. , Haydarov Sh. Badiiy matnning lisoniy tahlili. Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi Oʻzbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti , 2010. 112-bet.
2. Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.
3. M.Hakimov - “Oʻzbekiston pragmatiklingvistikasi asoslari“.-Toshkent: Akademiya nashri, 2013. 259-bet.
4. PRAGMATIKA - TILSHUNOSLIKNING MUHIM BOʻGʻINI Azimjonova M.D, Yartseva S.V. ILM-FAN VA INNOVATSIYA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI, 64-69 betlar.
5. Shukurova Z. F. STILISTIK VOSITALARNING NUTQDA ISHLATILISHI VA UNING VAZIFALARI. Multidisciplinary Scientific Journal. December, 2022. 359-364 betlar.